
43-UMUMTA'LIM MAKTABIDA SEMINAR BO'LIB O'TDI

Toshloq tumanidagi 43-umumta'lim maktabida "Zamonaviy maktabda ta'lim sifatiga e'tibor" mavzusida seminar bo'lib o'tdi. Seminarda 10 dan ziyod darslar tajribali ilmiy bo'lim mudirlari tomonidan tahlil qilindi.

Seminar ishtirokchilar maktabda o'quvchilarga berilayotgan bilimlar o'quvchilarni kreativ fikrlashga undashi va yangi texnologiyalar asosida darslarni olib borilishi va zamonaviy texnika vositalari yordamida darslarni o'tilishini kuzatdilar. Ma'lumot o'rnida, ushbu maktab 2022-2023 o'quv yilida qayta rekonstruksiya qilinib foydalanishga topshirilgan edi.

Maktabda sifatli ta'lim berish bilan birga yoshlarga 2 ta xorijiy til va kasb-xunar ham o'rgatib kelmoqda.

2023-04-12 10:50:39